

## ISSIQ NON FILMI TAHLILI

*Rejissiyor: Umid Xamdamov*

*Operator: Jahongir Ibragimov*

*Bosh rol ijrochisi: Zarina Ergasheva*

Filmning asosiy mavzusi oila , hayotga bo’lgan umid haqida boradi . Filmning g’oyasi hayotga bo’lgan qiziqish va umidga o’zimizni ishonitirib yashashga undash .Filmda 13-14 yosh atrofidagi Zulfiya ismli qizchaning hayoti gavdalanadi. Uning barcha orzu-umidlari, baxtga erish uchun harakatlari, barchasi filmda tasvirlangan. Filmda tugun qismi , Zulfiya mакtabdan kelgandan so’ng telefon ovozini eshtadi va uni qidiradi , uni seyf ichidan topadi va :

- Kaliti qani ? – deydi qichqirib.

- Kalitini nima qilasan ? – deydi buvisi achchiqlanib.

- Ouim telifon qilgan bo’lsalarchi ? – deydi alamidan yig’lagudek bo’lib . – Nega telefonni yashirib qo’ygansiz ?

- Onang telifon qilmaydi, - deydi jahl bilan. – Bor undan ko’ra ishlaringni qil .

Shu so’zlardan so’ng tomoshabin kampir nimanidir yashiryotgani, bu haqiqat oddiy emasligini his qiladi. Nimani yashirayapti ? degan savollar tushadi ?

Filmning kulminatsiyasi – buvisi bilan bo’lgan suxbat sahnasi deb hisoblayman. U sahnada barcha haqiqatlar ochiladi , qiz va buvi o’rtasidagi konfliktlar yechiladi .

Filmning yechimi – Zulfiya va Nozanin (onasi) bilan bo’lgan suhbatda , bu sahnada qiz onasiga endi kerak emasligini , u endi katta bo’lganini, u qishloqda buvisi va kelnoysi bilan yashashga majburligini anglab yetadi .

Filmdagi har bir qahramonni xarakterini tahlil qiladigan bo’lsak :

1 – Zulfiya , u juda o’jar, sho’h , o’z bilganini qiladigan talabchang qiz sifatida gavdalantirilgan.

Zulfiya haqiqatlarni bilishga bo’lgan qiziqlichlarni yechish davomida u o’zi uchun ayrim narsalarni anglab yetadi.

2 – Buvi obraqi , o’z o’rnida mehnatkash, mehribon, qattiqqol buvi obrazida ko’rsatilgan. Film davomida buvini o’qituvchi bo’lishiga qaramasdan uning ikkala farzandi ham munosib bo’la olmagani , biri yengiltak, ikkinchisi esa umuman bezori qimorboz bo’lib ulg’aygan , ma’joziy ma’noda aytganda , o’zi bo’zchi bo’la turib , belboqqa yo’lchimagan buvi obrazida ko’rishimiz mumkin .

3 – Kelinoyisi , bu obrazdagi qahramon o’ta yuvvosh , jiddiy, soda , beg’ubor , ayol sifatida berilgan . Uning bunchalar yuvoshligiga sabab hayotning unga bergen sinovlaridadir balki, balki, unga ko’nib , umid qilib yashashdan boshqa chorasi yoqligini bilgani uchun shundaydir .U eri haqida , uni nahang baliqlar yeb ketmaganini ham bilar, ammo u o’zini bu safsatalarga ishontirishga majburdir .

4 – Nozanin obrazi, hammaning ham o’z haqiqati bo’lganidek, Nozanining ham o’z haqiqatlari bor . Uning haqiqati qizini va onasini yomon ko’rishida va ularga mehir bermasligida emas , balki u ham insonligi , u ham endi baxtli bo’lishni istayotgani va bunda unga qizi to’sqinlik qilayotganidir . Nozanin uydagi kelinga o’xshab jim ko’nib yashashni tanlamadi . U kelinga o’xshab dardlarini bir o’zi yolg’iz ichiga yutishni emas , u endi boshqa bir o’ziga tirkak inson bilan bo’lishni tanladi .

5 – Tentak Xayrulla , bu obraz ekranda atigi 3 marotaba ko’rinadi, to’g’risini aytsam bu oraz nima uchun filmga qo’shilganini tushunmadim. Chunki bu obraz biror bir muammoni yechishda ishtirok etmagan , na Zu;lfiya va buvisining ortasidagi ziddiyatlarini ochib bera olgan , na xarakterlar ochilishiga xizmat qilgan. Bu kamchilikka qaramay , filmni muvaffaqiyatsiz deb bo’lmaydi , chunki filmda juda ko’p ifodalar va ramizlar qo’llangan. Masalan :

Katta yamoq qilingan gilam , hayot yamoqlarini qayta-qayta yamab o’tgan umr. Shunday insonlar borki, ichi to’la dard. Ichi to’la alam. Ammo ularning na alamini , na anduhini his qilasiz. Ular hayotni qayta boshdan qurgandan ko’ra “ yamoqlarni” berkitib o’tishni maqul ko’rishadi . Va hayotlarining mohiyatlarini ham shu yamoqda ko’rishadi .

Osmonda uchayotgan samalyot va undan kamalak ranglar paydo bo’lishi , hayotning yorqinliklari , hayotning tuhfalari , orzu – umid va ishonchga iboradir .

Dengiz – cheksiz orzu-umidlar , sofdillik, tengsizlik ramzi .

Film oxiridagi uyni turli ranglar bilan bo’yash sahnasi – bunda baxt kutilmaydi , o’z qo’llarimiz bilan yaratiladi degan ma’noni aytishimiz mumkin.

Filmdagi aktyor va aktrisalar ijrosi , filmdagi yangi chehra ya’ni Zarina Ergasheva birinchi roli bo’lishiga qaramay qizning xarakterini to’laqonli ochib bera olgan . Buvi rolida esa Munavvar Abdullayeva doimgidek o’z rolini mahorat bilan ijro etgan .

Filmning eng katta yutug’i operator Jahongir Ibragimovning ishlari deb o’ylaylam . Operator o’zimizning go’zal tabiat manzarasini, moviy dengizning poyonsizligi , tabiat va inson uyg’unligini juda mahorat bilan ko’rsatib bergen . Bir so’z bilan hulosa qiladigan bo’lsam film go’zal tabiatimizni , o’zligimizni boshqa mamlakatlarga ko’rsatish uchun yaxshi film bo’lgan . Film hozirgi kundagi dolzarb maishiy mavzularni , muammolarni yaqqol ko’rsatib bergen .